

## FONOSTILISTIK VOSITALARNING BADIY MATNDAGI AHAMIYATI

*Shodmonova Surayyo Odiljon qizi**Jizzax davlat pedagogika universiteti**O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** maqolada fonetik birliklarida uslubiy xususiyatlari va fonostistik vositalarning badiiy matndagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** fonetik uslubiyat, nutq tovushlari, badiiy matn, fonostistik vositalar, alliteratsoya, assonans, geminatsiya, qofiya.

Atoqli shoir Maqsud Shayxzoda "Shoir qalbi dunyoni tinglar" nomli she'rida tilimizning tovush xususiyatlari rang-barang, nafis, hayajonli va o'ynoqi tovushlarga boyligini tasvirlab bergan. Shoир ohangdor, mayin, musiqiy tovushlar nutqni ta'sirli va yoqimli qilishi, ular vositasida eng eng nozik bo'yoqlarni ham tasvirlay olish mumkinligini mumtoz adabiyotimiz namunalari, xususan, hazrat Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish asnosida chuqur angagan. Shuningdek, so'z san'ati sirlarini mukammal egallagan shoirning o'zi ham tovushlarning o'z o'rnida badiiyat namunalarini yuzaga keltirishini yaxshi angagan. Binobarin, tovushlar tizimini to'g'ri tanlay olish ham san'atdir. Bu san'at orqali oddiy nutq tovushlari baland ohangdorlik kasb etadi, fikr jarangdor ifodalanadi va ta'sir kuchi oshadi.

Oliy ta'lif dargohlaridagi "O'zbek tilining amaliy uslubiyati" fanining "Fonetik uslubiyat" mavzusini o'tish jarayonida fonetik birliklarning yuqorida tilga olingan uslubiy xususiyatlarini chuqur ochib berish nazarda tutiladi. Bunda dastavval talabalarda fonetik uslubiyatning o'rganish obyekti to'g'risida aniq bilimlarni shakllantirish, mavzuga tegishli tayanch tushunchalarning mohiyatini yoritish va fonetik birliklarning badiiy matndagi o'mini belgilashga e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, fonetik uslubiyat nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlarini , ular dan nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida foydalinish yo'llarini o'rganadi. Fonetik uslubiyatning asosiy vazifalaridan biri nutq tovushlarining badiiy matndagi o'ziga xos uslubiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, urg'u va ohangning vazifalari, ularning talaffuz jarayonidagi uslubiy jihatlarini tahlil etish ham fonetik uslubiyatning muhim vazifasi sanaladi.

Nutq tovushlarining o'ziga xos uslubiy xususiyatlari, asosan, badiiy va so'zlashuv uslublarida namoyon bo'ladi. Yozuvchi va shoirlar o'z asarlarida tovushlardan uslubiy maqsadda unumli foydalaniib go'zal badiiyat namunalarini yaratadilar. Badiiy matnlarda unli yoki undosh tovushlarni takrorlash, orttirish, tushirish, ikkilantirish, cho'zish, qavatlari kabi usullar nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Yevropa adabiyotshunosligida **evfoniya** ( inglizcha euphony- yaxshi ovoz) deb ataluvchi fonetik usul nutqida kuchli ohangdoshlik, ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Evfoniya nutqning har qanday turi uchun ma'lum darajada xos hodisadir. Ayniqsa, badiiy adabiyotda uning ahamiyati katta. Alliteratsiya, assonans, qofiya, tovush takrorlari evfoniya holatini yuzaga keltiruvchi usul va vositalardir. So'z san'atkorlari o'z ijodlarida mazkur usul va vositalarni qo'llab tovushlarning turli tarzda tovlanishini aks ettirganlar.

**Alliteratsiya** tovushlarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi va she'riy asarning ohamgdorligini ta'minlaydi. Sho'ir o'z fikrini ifodalash uchun bir xil yangrovchi tovushga bo'lgan so'zlardan foydalanadi. Masalan:

*Jahon-u jon nisoring qilsam, ey jonon, tong ermaskim,*

*Jahon ahlig'a jonsen, balki jon ahlig'a jononsen. ( Munis)*

Baytda **j** harfi bilan boshlangan so'zlardan foydalanib alliteratsiya vujudga keltirilgan. Bu fonetik vosita she'r mazmunini ta'sirli qilib, aytilmoqchi bo'lgan fikrni bo'rttirish va ravshanlashtirish, misralardan ohangdorligi hamda musiqiyligini oshirishga xizmat qilgan.

Quyidagi baytning birinchi migratsiya **s** tovushli so'zlar uyushtirilganligi tufayli ta'sirchanlik yanada kuchayib, tovushlar tovlanishi yuzaga kelgan:

*Sochilgan sochingdek sochilsa siring,*

*Anor yuzlaringni kimga tutasan. ( Cho'pon)*

Odatda, tildagi unli fonemalarning hamohangligi musiqiylikning oshishiga sabab bo'ladi. **Assonans** bir xil yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdoshlikdir.

**Arazlasa aylanay arazingdan -**

**Qizlarxonim qizlarning sarasidan.** (M. Yusuf)

Mazkur misralardagi 6 ta so'z tarkibida **a** unlisi 15 marta takrorlanib, hamohanglik va o'ziga xos musiqiylikni hosil qilgan.

Alliteratsiya va assonans usullari birligida qo'llanishi ham mumkin. Quyidagi misralarda **o** unlisi va **y** undosh uyg'unligidan ajib ohangdoshlik hosil bo'lgan:

**Oltin oyga olma otar Oybodom,**

**Oybotarda yig'lab yotar Oybodom.**

**Oyqizlarning oyparisi Oybodom,**

**Kunbotarda kuyib yotar Oybodom. (E. Shukr)**

**Sonor** ( lotincha sonorus-ovozi, ohangli) undoshlar - **m,n,ng, l, r** talaffuzda shovqinga nisbatan ovoz ko'proq hosil bo'ladi. Shuning uchun sonorlar mayin va musiqiy tovushlar hisoblanadi.

Ki, bulbul nola, afg'on aylamakni mandin o'rgandi,

Vujudin sham'i so'zon aylamakni mandin o'rgandi. ( Uvaysiy)

Mazkur bayt tilimizdagi beshta sonordan to'rttasi - **l,n,m,r** tovushlarining takrorlanishi va unililarning quyma ohangdorligi sababli kumush jarangini kasb etgan.

Badiiy matndagi fonetik hodisalar, ya'ni tovush almashishi, orttirilishi yoki tushurilishi she'r vazni talabi bo'libgina qolmay, o'ziga xos uslubiy vazifa bajaradi, misralarning ravonligini ta'minlaydi. Tovush almashishi og'zaki nutqda juda ko'p uchraydigan fonetik o'zgarish hisoblanadi. Ijodkorlar bu hodisani she'riyatda ham mahorat bilan aks ettiradilar:

Qo'limda bir qadah tim qora qahva,  
Yelkamda muazzam gumbazi davvor.  
Qarshimda poyonsiz bu qutlug' ma'vo,  
Ko'kish tuman ichra yotar ulug'vor. (E.Vohidov)

Ko'nglingizni oldimi shum yangolari,  
Aldab yo'lga soldimi yo hiylolari.  
Ko'zingizni oldimi yo tillolari-  
Sevgimizni zarlarga sotdingizmi? (M.Yusuf)

Qo'shimchalarda ham **a** tovushining o'ta cho'ziq **o** tarzida talaffuz etilishi misralarga ravonlik, badiiylik va musiqiylik baxsh etishi bilan kishida zavq uyg'otadi:

Oq ilonga, oppoq ilon,  
Oydinda yotgoning qani?  
Men yomondin ayrlib,  
Yaxshini topqoning qani? ( Xalq qo'shig'i)

#### Tovush orttirilishi:

O'g'lidan aylardi ummid  
Keltirar rahmat devoni..... ( E. Vohidov)

Tovushlarning qavatlanishi, ya'ni **geminatsiya** ona tilimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib bu hodisa sabablari tilshunoslar tomonidan turlicha izohlanadi. Professor H. Ne'matov mazkur fonetik hodisa xususida quyidagi fikrni bildiradi: "Qo'shoqlanish - undoshlarning cho'zilishi, ikkilanishi hodisasini fonetik o'zgarishlar sirasida ko'rib chiqish o'ta shartlidir. Lekin bu hodisa faqat ikki unli orasidagi yakka undoshda sodir bo'la olishi bilan fonetik o'zgarishlarga o'xshaydi. Qo'shoqlanish, asosan, ikki unli orasida kelgan **q,k,t,l** tovushlarida va faqat 2,7,8,9,30,50 sanoq sonlarini nomlashda sodir bo'ladi".

Fonostistik vositalar matnda ovozning qay darajada baland yoki pastligi shuningdek, qisqa yoki davomiyligini ifodalash uchun ham qo'llanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Ne'matov. O'zbek tili tarixiy fonetikasi. T.; o'qituvchi, 1992.86-bet
2. G'. Abdurahmon Abdurahmonov, Sh. Shukurov. O'zbek tili tarixiy grammatikasi. T.: O'qituvchi, 1973. 76- bet.